



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI**



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
KARSHI ENGINEERING ECONOMIC INSTITUTE**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI**



**“MOLIYANI RAQAMLASHTIRISH: YANGI TENDENSIYALAR
VA TATBIQ ETISH TAJRIBASI”**

**MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI
(2024-yil 22-23-noyabr)**

**"ЦИФРОВИЗАЦИЯ ФИНАНСОВ: НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И
ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ"**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСОВ
(22-23 ноября 2024 г.)**

**“DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND
IMPLEMENTATION EXPERIENCE”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND THESES
(November 22-23, 2024)**

QARSHI-2024

Moliyani raqamlashtirish: yangi tendensiyalar va tatbiq etish tajribasi. – Qarshi: «Intellect» nashriyoti, 2024 yil. 904 bet.

Mas’ul muharrir: iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Omanov R.F.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Yakubova Sh.Sh., i.f.n., prof. Ro’ziyev Z.I., i.f.f.d. (PhD), dotsent Samiyev S.I., i.f.f.d. (PhD), dotsent Iskandarov A.M., i.f.f.d. (PhD), dotsent Babaxanov J.M.

Taqrizchilar:

Xamrayeva S.N. – i.f.d., professor, QarMII

Ochilov A.O. – i.f.d., professor, QarshiDU

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori, hamda “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60–sonli Farmoyishida qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, iqtisodiyotni, ayniqsa moliya va moliyaviy texnologiyalarni raqamlashtirishi sharoitida xavfsizlikni ta’minlash, moliya, soliq, bank, sug‘urta va boshqa ilg‘or moliyaviy texnologiyalarga asoslangan operatsiyalarni tatbiq etish muammolari va ilmiy-amaliy yechimlari hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan, respublika yetakchi olimlarining tajribalari bilan o‘zaro fikr almashildi, mamlakatning rivojlanish darajasi va moliyani raqamlashtirish muammolarini yechish va innovatsion texnologiyalar asosida ushbu jarayonni tashkil etishning muayyan tamoyillarini shakllantirgan o‘ziga xos tomonlari o‘rganib, muhokama qilindi. Sohada moliyani raqamlashtirishdagi muammolarni hal qilish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlandi.

Ushbu to‘plamning chop etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari ijrosini amalga oshirishga bag‘ishlangan. Taqdim etilayotgan to‘plam iqtisodiyot sohasi, shu jumladan bank, moliya, soliq, sug‘urta va oliy ta’lim mutaxassislari hamda keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plam muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2024 yil “_____” _____dagi №____-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdagi maqola va tezislarga kiritilgan statistik raqamlar, ma’lumotlar va maqola saviyasi uchun mualliflar mas’uldir.

© Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2024

bo'lgan xarajatlar hajmini sezilarli ravishda pasaytirishga, ular sifatini oshirishga, umumiy qamrov darajasini keskin oshirishga olib kelishi mumkin.

Jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak aynan bu texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etilishi uning raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish bilan bir qatorda, yangi biznes modellarini yaratilishiga, texnologik- revolyusion jarayonlarni tezlashtirishga, turli soha va tarmoqlarning transformatsiyalash jarayonining tezlashishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishiga, qo'shimcha qiymatni yaratilish jarayonining optimallashtirishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). *Understanding the Digital Economy*. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA.
2. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019 y.
3. Bekmurodov T.F. Issledovaniya po kompyuternoy tekhnike i informatike v Uzbekistane: istoriya i perspektivy. [Sb. nauchnykh trudov NPO "Kibernetika" AN Ruz - Tashkent, 2004.-s.78-84.

AGROSANOAT MAJMUIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARI YO'NALISHIDA KICHIK TADBIRKORLIK KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

e.mail: qurbonov7721@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-3208-5657>

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va unda tadbirkorlikning o'rni asoslangan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi tadbirkorligi sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari urganilgan va tahlil etilgan. O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligida mavjud muammolari va istiqbollari keltirilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislarining yetishmovchiligi va tadbirkorlikdagi mavjud muammolarning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, agrotadbirkorlik, texnologiya, samaradorlik, mahsulot sifati.

Аннотация. Статья основана на специфике сельского хозяйства и роли в нем предпринимательства. Также были изучены и проанализированы мнения ученых, проводящих исследования в области аграрного предпринимательства. Представлены современные проблемы и перспективы сельского хозяйства Республики Узбекистан. Высказаны предложения и рекомендации по нехватке специалистов в области сельского хозяйства и решению существующих проблем в сфере предпринимательства.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, предпринимательство, агробизнес, технология, эффективность, качество продукции.

Annotation. The article is based on the specifics of agriculture and the role of entrepreneurship in it. The opinions of scientists conducting research in the field of agricultural entrepreneurship were also studied and analyzed. Modern problems and prospects of agriculture of the Republic of Uzbekistan are presented. Suggestions and recommendations were made on the lack of specialists in the field of agriculture and the solution of existing problems in the field of entrepreneurship.

Key words: Agriculture, entrepreneurship, agribusiness, technology, efficiency, product quality.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida uning mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlikning rivojlanishi bozor islohotlarini amalga oshirish bilan hamohang rivojlanmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida tadbirkorlik shakllari aholini ish bilan bandligini ta'minlashning rivojlanib borishida hal etuvchi rol o'ynaydi. Tadbirkorlikdagi xususiy tashabbuskorlik, omilkorlik hozirgi zamon iqtisodiy jarayonida harakatlantiruvchi kuchdir. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib borish har qanday bozor islohotining bosh yo'nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatli jihatlaridan biri uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining doimiy ravishda o'sib borishidir. O'zbekiston respublikasida 2000 yil 31 foiz 2022 yilga kelib 54,9 foizi va iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 82 foizidan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va iqtisodiyotda band bo'lgan aholining kichik tadbirkorlik sube'ktlaridagi ulushining Respublika va viloyat ko'rsatkichlari 1,5-2,0 foizga farq qilgan holda rivojlanmoqda.

Hozirgi zamon ijtimoiy hayotida unga amaliy ehtiyoj sezmaydigan birorta xo'jalik faoliyati topilmaydi. Tadbirkorlik har qaysi mamlakatda va uning ayrim hududlaridagi aniq demografik va iqtisodiy holatlarni hisobga olgan holda rivojlanadi, tadbirkorlik yo'nalishining rivojlanishi esa aniq holatdagi mamlakatimiz iqtisodiyotning amaliy vazifalari bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 - son Farmonida keltirilgan maqsadlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish.

Ayiniqsa agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakitimizning muhim vazifalaridan biridir. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng muhim sohalardan biridir. Aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi barcha kishilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash bilan birga, ularni ish bilan band qiladi. Buni amalga oshirish tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi sohasi bilan birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Ushbu hamkorlik iqtisodiyotning barqarorlashuvi hamda global iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Global iqtisodiy rivojlanishda tadbirkorlik qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va bu bilan bog'liq xavflar tufayli bir qator muammolar, qiyinchiliklar va to'siqlarga duch keladi. Shu bois qishloq xo'jaligida yuqori samarali, raqobatbardosh tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish zarur.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. A.N.Asaul [1] fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi bo'lib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali o'z a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlariga bo'lgan jamiyat talabini rag'batlantirish va qondirishdan iborat bo'lib, bozor muvozanati buzilishi orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi. I.V. Ukrainsevaning so'zlariga ko'ra [2], xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – bu xo'jalik faoliyatini olib boradigan va to'liq javobgarlikni o'z zimmlariga oladigan tadbirkorlarning o'zlari.

Rossiyaning "Bosh direktor" jurnali [3] ikkita asosiy global muammo yo'nalishini etirof etadi:

➤ oziq-ovqatga muhtoj kishilarning darajasi va agrar munosabatlarning qoloqligi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi va oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Shu bois ko'pchilik ochlikdan aziyat chekmoqda. Zero, ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa-da, och odamlar soni hali ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Birlashgan millatlar tashkilotining aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra 2021 yil 1 yanvardagi ma'lumotiga ko'ra¹⁴² hozirgi paytda dunyodagi nochorlar soni taxminan 1181,25 million kishini tashkil etadi, bu umumiy aholining taxminan 15 foizini tashkil qiladi. Dunyo aholisining 60 foizi Osiyo mamalakatlariga tug'ri kelishinini hisobga olsak, ushbu mamlakatlarda birlamchi ehtiyojlarni qondira olmaydigan aholi soni ko'pligini anglatadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda yashash minumimidan kam daromad ega kambag'allar, jumladan, Rossiyada 17,6 mln.(12.1%),¹⁴³. Yevropa ittifoqida kambag'allar soni 85 mln.(17%) kishi, Amerika Qo'shma shtatlarida 40 mln. kishini tashkil qiladi¹⁴⁴. Shu nuqtai nazardan, bu muammo birinchi va eng muhim hisoblanadi.

➤ Ikkinchi dunyo muammosi agrar munosabatlar bilan bog'liq. U turli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi farq tufayli paydo bo'lgan. Ba'zi mamlakatlarda yangi yuqori samarali texnologiyalar va o'sish usullarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi sohasi yuqori darajada. Ammo ayrim mamlakatlarda o'tmish qoldiqlaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlariga mos mulkchilik shakllari va munosabatlari tug'ri yo'lga quyilmagan. Ushbu bo'shliq mamlakatlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi munosabatlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat O'zbekiston respublikasiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

142 <https://www.unfpa.org/data/world-population-dashboard>

143 <https://www.interfax.ru/business/806527>

144 <https://visasam.ru/emigration/canadausa/bednost-v-ssha.html>

Tadbirkorlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ushbu masalaga yondashishda turli qarashlar, unda ma'lum bir qarama-qarshiliklar mavjud. Ko'pchilik korxona rahbarlari va yirik aksionerlik jamiyatlarining menejerlari o'zlarini tadbirkor deb hisoblaydilar, vaholanki, ularning faoliyati ma'lum darajada ishlab chiqarish vositalari egalari tomonidan nazorat qilinadi. Ko'pchilik, tadbirkorlik faoliyati to'laligicha kichik biznes doirasida, o'z korxonasining egasi va menejeri bo'lgan tadbirkor tomonidan amalga oshiriladi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, «tadbirkor – bu o'z ishining manfaati yo'lida mustaqil faoliyat yurituvchi boshqaruvchi» [7] degan fikrlar ham mavjud. «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonunda tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Tadbirkorlik – mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir».

Tadbirkorlikning mohiyatini, uning harakat va imkoniyatlari doirasini yaxshiroq tushunib olish uchun, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi roliga bo'lgan qarashlar tizimi rivojini tashkiliy, siyosiy – iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatlar nuqtai – nazaridan umumlashgan holda tahlil qilamiz.

O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning tadbirkorlikni «daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor, mashg'ulot) sohibkorlik - tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish» [8], «...tadbirkorlik-pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish» [8], deb ta'riflashgan. Ushbu ikki ta'rif bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularning bir-birlaridan farqlanishini ko'rsatib berolmaydi. Shu asosda, shunday fikrga kelish mumkinki, A.O'lmasov ushbu ikki tushuncha mazmuniga o'z qarashlarini rivojlantirib, biznes tushunchasiga ancha to'laroq ta'rif beradi. Masalan, u «Biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir», «tadbirkorlik-kishilar (mulkchilik sub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat, deb qaraydi. Tadbirkorlik, umuman, pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi», deb ta'riflaydi [8].

Shunday qilib, biz shunday fikrga kelishimiz mumkinki, daromad topishga qaratilgan har qanday faoliyatni ham biznes tushunchasi bilan ifodalash mumkin emas. Biznes foyda olishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, mulkiy mas'uliyat va javobgarlikka, iqtisodiy tahlikaga asoslanadi. Bu esa biznes bilan shug'ullanuvchi faoliyatda xonavayron bo'lish, bozori kasod bo'lish xavfi mavjudligini, agar bu hol yuz bersa, u holda mulkidan ayrilishi mumkinligini anglatadi. Shuning uchun, biznes tushunchasi daromad, foyda, naf olish maqsadida mulkiy javobgarlikka, iqtisodiy tahlikaga asoslangan faoliyatni anglatadi. Tadbirkorlik biznesning bir turi bo'lib, foyda olish maqsadidagi yaratuvchanlik, ya'ni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish

faoliyatidir. Biznes o'z ichiga tadbirkorlikni, iste'mol biznesini va boylikdan boylik undirish biznesini, yaratuvchilik bilan bog'liq bo'lmagan kasbkorlik biznesini oladi.

Kichik tadbirkorlik erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatish jarayonida tashkil etilish shakli va turlarini o'zgartirib boradi hamda o'z imkoniyati va tashqi muhit ta'sirida faoliyat turlarini o'zgartirishi, bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi va ilmiy uslubiy asoslari.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslari, agrar sohada kichik biznes rivoji, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida turli xildagi sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yuritish subektlarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy vositalarni o'rganish ularni shakllantirish yo'llarini belgilash nafaqat hozirgi davrning, balki kelajakning muhim muammosi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy vositalarini tahlildan o'tkazishdan avval uning iqtisodiy ko'rsatkichlari holatini ko'rib chiqishni lozim topdik.

Amaliyot ko'rsatadiki, korxona o'z faoliyatida turli ko'rsatkichlardan foydalanadi. Bularning biri iqtisodiyot va moliya holatini tavsiflasa, ikkinchisi ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini, uchinchisi mehnatni ishlab chiqarish va moddiy rag'batlantirishni tashkil etishni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ayrim ko'rsatkichlar operativ xarakterga ega bo'lsa, boshqalari korxona holatini qisqa va uzoq muddatda tartibga solish vazifasini bajaradi. Amaliyot ushbuni ko'rsatmoqdaki, bugun birinchi navbatda ketma-ketlikni ta'minlagan holatda asosiy natijaviy ko'rsatkichlar o'rganish kerak. Masalan, ishlab chiqarish rejasini bajarishning mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va uning ta'minlanganligi; asosiy fondlarning holati va undan foydalanish koeffitsiyenti; moddiy resurslardan samarali foydalanish va moddiy-texnika ta'minoti; mahsulot xarajatlari; moliyaviy holati; foyda va rentabellik.

Bunday tartibda tahlil o'tkazishda yuqoridagi ko'rsatkichlardan aniqlandiki, ilmiy-texnika rivojlanish tadbirlari samaradorligi mutlaqo o'rganilmaydi. Shu sababli, iqtisodiy tahlilni korxona texnik holati, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini baholash, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari bilan to'ldirilishi lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlilning asosida nafaqat uning ketma-

ketligi, balki korxona xususiyatini, yaratilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar va boshqalar) hisobga olinishi lozim.

Iqtisodiy tahlil ishlab chiqarishni tashkil etish vazifasining sifatli bo'lishi asosiy talablardan unga tizimli yondashishlarni talab etadi, faqat har bir iqtisodiy ko'rsatkichlarni asoslash natijasida korxona strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Aks holda, iqtisodiy tahlil o'z ma'nosini yo'qotadi, ishlab chiqarish samaradorligi vositasiga aylanmaydi, bozor muhitida korxona va uning mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlamaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalari nuqtai nazaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, viloyat va uning hududlarda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va sharoit yaratish ustuvor yo'nalishdir. Shu maqsadda mustaqillikning birinchi kunlaridan bozor iqtisodiyotida erkin raqobat muhitini yaratish uchun barcha davlat korxonalarini xususiylashtirish ishlari olib borildi. Shu o'rinda kichik tadbirkorlik korxonalarining tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish xajmidagi ulushi oshib bordi. Jumladan, Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yilda 31,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 54,9 foizni tashkil qilgan. Qurilish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 72-99 foizi kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri keladi. Ammo sanoat sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi 2000 yilda 12,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 27 foizni tashkil etgan. Eksport sohasida ham kichik tadbirkorlikning o'sishi keyingi 20 yilda 2 barobar o'sgan xalos. O'zbekiston respublikasida agrosanoat majmuining rivojlanishi qishloq xo'jaligini mexanezatsiyalashtirish va sanoatlashtirish hamda eksport salohiyatini oshirish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi qishloq xo'jaligida boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori, qishloq xo'jaligi sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi oshib borishiga sabab, birinchidan, zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarining o'rnida fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi va ularda ishlab chiqarish samaradorligining sezilarli o'zgarganligi, ikkinchidan, viloyatda aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashashi va ko'pchiligi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bandligidir. Lekin qolgan tarmoqlarning past darajada o'sishi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligiga sanoat korxonalarini olib kirish, qolgan tarmoqlarni ham rivojlantirishga asos bo'ladi. Shuning uchun, sanoatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish viloyat iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi bo'lishi kerak. Bu borada xorijiy va mahalliy investitsiyalardan keng foydalanish lozim. Jumladan, agrosanoat majmuida investitsiya sohasini kengroq rivojlantirish qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga asos bo'ladi hamda iqtisodiyot

tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmida tadbirkorlik ulushining oshishini ta'minlaydi.

Agrosanoat majmuasining asosiy tarmoqlaridan biri, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rejalashtirish va ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar so'ngi 20 yil ichida 0,1 punktga kamaygan. Ushbu yerlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish 2010 yilda 2000 yilga nisbatan 22,2 marta oshgan bo'lsa, 2023 yilda 2010 yilga nisbatan 10 martaga oshgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini kichik biznes sub'ektlari ishlab chiqaradi. So'ng un yillikda qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'sish darajasining kamayishi qishloq xo'jaligida mulkchilik munosabatlarining jahan amaliyotiga mos holda shakllanmaganligidadir.

1-jadval

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari¹⁴⁵

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2023	2010 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarish, marta	2023 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish, marta
Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar	3778,3	3647,5	3708,4	3694,2	3396,1	3260,7	1,0	0,9
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	1387,2	5978,3	30856,7	99604,6	250250,6	303415,5	22,2	9,8
shu jumladan:								
dehqonchilik	696,8	3323,1	18119,0	55429,2	123858,8	152130,4	26,0	8,4
chorvachilik	690,4	2655,2	12737,7	44175,4	126391,8	151285,1	18,4	11,9
Kichik biznesda qishloq xo'jalik	1345,6	5799,0	30239,6	98608,6	247748,1	300381,3	22,5	9,9

¹⁴⁵ Qashqadaryo viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari

mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi, mlrd. so'm.								
Kichik biznesning qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmidagi ulushi, foizda.	97,0	97,0	98,0	99,0	99,0	99,0	x	x

Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bu mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun mustahkam huquqiy, iqtisodiy sharoit yaratish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning monopol xususiyatlarga barham berish, haqiqiy yer egalarining, ya'ni mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari) faoliyatini barqaror rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, xususan, veterinariya xizmati, bank, konsalting, lizing xizmatlari, texnik servis va ta'mirlash, birja xizmati, seleksiya urug'chilik, agrokimyo, transport xizmatlari va boshqa agroservislar xizmati kabilarni tashkil etish va bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rivojlantirishni talab etmoqda. Chunki xizmat ko'rsatuvchi sohalarni samarali tashkil etmasdan, agrar sohalar bilan infratuzilmalar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirmasdan turib turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarida faoliyat yurituvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida sanoatni rivojlantirish va zamonaviy texnikalarni olib kelish maqsadida xorijiy va mahalliy qishloq xo'jaligi klasterlari shakllantirildi. Shu bilan birga agrosanoat majmui korxonalari ham paralel faoliyat ko'rsatmoqda.

Agrosanoat majmui korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy shartlaridan biri ularni o'z vaqtida barcha zaruriy vositalar va mehnat qurollari bilan ta'minlashdan iboratdir. Agrosanoat majmui korxonalarining moddiy-texnika ta'minotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

- har bir qishloq xo'jaligi zonasiga mos keladigan iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan texnika va tenologiyalar bilan ta'minlash, shu asosda ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish;

– ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish;

– qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘g‘itlardan foydalanishni to‘g‘ri tashkil etish va iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan biologik vositalarga yondashish;

– ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurishni keng ko‘lamda avj oldirish va qurilishni takomillashtirish;

– erlarning meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligining suv bilan to‘la ta‘minlanishiga erishish, ya‘ni yerlarga mahalliy o‘g‘itlar solish hamda sug‘orishning ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash;

– chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini mahsuldor zotli hayvonlar bilan ta‘minlash va elektrlashtirish darajasini oshirish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarining kasalliklarga bardosh bera oladigan yuqori hajmli, tezpishar urug‘ navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish;

– xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini moddiy–texnik jihatdan takomillashtirishda quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

– xo‘jalikning ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash;

– ular uchun asosiy talabnomalarni tuzish va taqdim etish, talabnomalarni ta‘minot tashkilotlari, tayyorlovchi zavodlar hamda moddiy – texnik resurslarni yetkazib beruvchilarga o‘z vaqtida topshirish;

– ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzish va bu shartnomalarni o‘z vaqtida muvaffaqiyatli bajarish.

Agrosanoat majmuida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlagan korxonalar faoliyati ancha yaxshilanib bormoqda. Qolgan sohalar esa davlat tomonidan to‘la erkinlik va imtiyozlar berilgan holda ularning mustaqil ishlashini rag‘batlantirish lozim. Ularni rag‘batlantirish tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy jihatdan makrodarajada va mikrodarajada amalga oshirilishi lozim. Davlat tadbirkorlarning barcha muammolarni, jumladan, mikrodarajada tashkiliy-iqtisodiy masalalariga aralashish bozor iqtisodiyoti qonunlariga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun ularning o‘zaro birlashib harakat qilish mexanizmini shakllantirishda iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash lozim.

Agrosanoat majmui tarmoqlarida moliyaviy mablag‘lar manbai turlicha, ammo ularning faoliyati bir-biriga bog‘liqdir. Jumladan, infratuzilma sohasida moliyaviy resurslar tugatilgan shirkatlardan qolgan mol-mulk asosida aholiga va fermer hamda dehqon xo‘jaliklariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar hisobiga to‘lanayotgan mablag‘lardan iborat. Qishloq xo‘jalik mahsulolarini qayta ishlovchi korxonalarining moliyaviy manbai sotilgan tayyor mahsulotlardan tushgan mablag‘lar bo‘lib, ular ko‘proq naqd

pulga sotilganligi sababli ushbu sohada kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlik rivojlanish tendensiyasiga ega. Ammo yirik loyihalarni amalga oshirish va faoliyatini kengaytirishga yetmaydi. Qishoq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar moliyaviy mablag‘i asosan davlat buyurtmasi asosida sotib olinayotgan mahsulotlardan tushgan pul mablag‘laridir. Ushbu sohalarga davlat tomonidan imtiyozli yordam berilayotgan bo‘lsa-da, ular tomonidan ko‘rilayotgan daromad takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kamlik qiladi. Bunday holatga barham berishda agrosanoat majmui tarmoqlari o‘z mablag‘larini bosqichma-bosqich birlashtirish orqali hal qilishi mumkin. Buning uchun agrosanoat sohalari majmua tarzida faoliyat ko‘rsatishi va undan o‘z maqsadlari yo‘nalishida foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Koopersiya kengashi qarorlarining ijrosini amalga oshiruvchi tuzilma a‘zolar tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kooperatsiya kengashi raisi, xududlar bo‘yicha vakilliklar bilan ishlovchi bo‘lim boshlig‘i, xududlar bo‘yicha vakillar a‘zolar ichidan ochiq ovoz berish usuli bilan saylanadi. Sohalar bo‘yicha kerakli mutaxassislar a‘zolar ichidan hamda tashqi mehnat bozoridan tanlov asosida qabul qilinadi. Kengashning ma‘muriy tuzilmasi rais tomonidan tayinlanadi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda agrosanoat majmui sohalari tarqoq holda faoliyat ko‘rsatmoqda. Bunga sabab birinchidan, xususiylashtirish natijasida tarmoqning mulki turli mulk va kasb egalari qo‘liga o‘tishi, ikkinchidan, davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashda eski boshqaruv muhitidan to‘liq qutilaolmaganligi, uchinchidan, agrosanoat sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub‘ektlari turli tashkilot va muassasalar tomonidan tartibga solinishi va moddiy ta‘minlanishidir.

Bizningcha, agrosanoat majmui tarmoqlari bir-birini taqozo qilganligi uchun sohalarni o‘zida birlashtirgan kooperatsiyani tashkil qilish hamda ushbu kooperatsiya yiriklashgan fermer xo‘jaliklari va qayta ishlovchi kichik korxonalarining moddiy bazasi asosida infratuzilma korxonalarida yo‘nalishlarida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu kooperatsiya agrosanoat majmui korxonalarida moliyaviy birlashuvi asosida tashkil etilib, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlash korxonalarining rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Ushbu kooperatsiyani tashkil etish asosida bozor talablariga mos agrosanoat majmui sohalari majmua tarzida samarali faoliyat ko‘rsatadi hamda kompleks xizmatlar bozori shakllanadi. Shuningdek, kooperatsiya ASM kichik korxonalarida o‘z-o‘zini boshqarish, rivojlantirish tuzilmasiga aylanadi.

Agrosanoat majmuida kichik korxonalar alohidalashib, tarqoq holda faoliyat ko‘rsatishi sohalarning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmui korxonalarining rivojlanish istiqboli majmua tarzida faoliyat ko‘rsatishni taqozo qiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish yo‘llaridan biri

qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchi kichik korxonalar imkoniyatlaridan kelib chiqib, infratuzilma yo‘nalishlarida funksional birlashuvini tashkil etishdir. Shu orqali agrosanoat majmuining bozor funksiyalaridan kelib chiqib samaradorlikni oshirish va baholash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Асаул А. Н. / Организация предпринимательской деятельности: учебник для вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд.– СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6
- 2,Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве[Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – УРЛ: [хттп://e-concept.ru/2017/770442.хтм](http://e-concept.ru/2017/770442.htm)
- 3 Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2020. – УРЛ: [хттпс://www.гд.ру/артислес/9254-ккк-17-м6-02-06-2020-перспективй-селского-хозяйства](https://www.гд.ру/артислес/9254-ккк-17-м6-02-06-2020-перспективй-селского-хозяйства)
4. Мировая статистика онлайн [Электронный ресурс]//Ворлдометерс.– URL:<http://www.worldmeters.инфо> (Дата обращения: 06.11.2017)
5. Турсунов Имамназар Эгамбердиевич, Курбанов Алишер Бобокулович Инновационные подходы развития предпринимательства // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-podhody-razvitiya-predprinimatelstva>
6. Курбанов А.Б., Джалилова Н.М. Роль кооперации в формировании аграрной собственности Economics № 4 (47), 2020
7. Благова З.И. Предпринимательства в Российской экономике. – Санкт-Петербург.: Ун-та экономики и финансов, 1995.-102 с.
8. То‘xliyev N., O‘lmasov A. Ishbilarmonlar lug‘ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993. - 314 b.
9. Владимир Рувинский. Почему малый бизнес не растет <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2021/05/08/>
10. Vladimir Ruvinskiy. Pochemu malyy biznes ne rastet <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2021/05/08/>
11. Xurramov A.F., Mamatov A.A. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlar va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. – 59 b.

YASHASH JOY VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ISTE‘MOL MEYORLARGA ASOSLANGAN EKONOMETRIK TAHLILI

Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

<https://orcid.org/0009-0003-5110-4547>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik tadqiq etishning zamonaviy rivojlantirishning iste‘mol meyorlarga asoslangan muhim jihatlar bayon etilgan. Xususan, yashash joy va umumiy ovqatlanish korxonalar faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko‘rsatkichlarning guruhlangan tizimi, korxonalar faoliyatini tahlil qilish tasnifining mezonlar bo‘yicha senariysi, rivojlantirishning iste‘mol meyorlarga asoslangan omillar to‘plamini shakllantirish ko‘rsatkichlari taklif etilgan.

155.	Qurbonov A. Agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi texnikalari yo'nalishida kichik tadbirkorlik kooperatsiyasini tashkil etish yo'nalishlari	683
156.	Rahimov A.M. Yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishning iste'mol meyorlarga asoslangan ekonometrik tahlili	693
157.	Egamberdiyeva S.R Kapital qo'yilmalar hisobini takomillashtirishning ahamiyati	697
158.	Egamberdiyeva S.R., Bozorov Y.X., To'rayev X. Xalqaro standartlari asosida investitsiyalar auditini takomillashtirishning ahamiyati	702
159.	Ro'ziyev Z.I., Berdiyev A.X. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari samaradorligini oshirish istiqbollari	706
160.	Ergasheva N. Outsorsing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi va sifatini bohalash	721
161.	Turobov Sh.A. Tomorqa xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari	724
162.	Ergasheva N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsingdan foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash	729
163.	Raimova M.Dj. Raqamli texnologiyalarning iste'molchi xulq-atvoriga ta'siri	734
164.	Muzaffarova K. Conditions for the development of tourism in the kashkadarya region	736
165.	Karimov M. Raqamli iqtisodiyotda mahsulot tannarxini pasaytirishning texnologik va strategik usullari	740
166.	Xushvaqova D.I. Raqobat sharoitida kichik biznes faoliyatini rivojlanish jarayonlarining ob'yektiv zarurligi va mazmuni	746
167.	Khusrov S.A. History of talant management	750
168.	Бердиев Ж. Влияние региональных особенностей на гостиничные хозяйства Кашкадарьи	756
169.	Ҳасанова Ю.М., Давлатова Д. Инвестиционная привлекательность регионов республики узбекистан	762
170.	Холмурадов О.Н. Молиявий натижани характерловчи кўрсаткичларни халқаро стандартларга мувофиқ тан олиш, баҳолаш ва аниқлаш тартиби	765
171.	Berdiyev J. Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	769
172.	Султанов С.Ж. Перспективы финансирования системы здравоохранения на основе показателей эффективности	775

173.	Бабаев Ш., Жураев Б.Н., Шаймуродова Д.А. Молиявий институтлар томонидан тақдим этилган молиявий хизмат сифатини оширишда ходимлар сиёсатини ошириш йўллари	777
174.	Abdullayev O.G’. Agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillari tahlili	783
175.	Abdullayev O. Mintaqa agrosanoatini hududlararo klasterlashtirishda integratsiyalash masalalari	789
176.	Abdirashidov T.A. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari samarasini oshirishda logistika xizmatlarining ahamiyati	792
177.	Eshqobilova N. Mintaqada transport-logistika tizimi samaradorligini oshirishdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari	794
178.	Яриев Ш.Ш. Харидлари аудитининг назарий масалалари	802
179.	Karimov M.Sh. Raqamli iqtisodiyot kontekstida korxonalarda mahsulot tannarxini pasaytirishning optimal modelashtirish usullari	807
180.	Нурмуродов К.П. Анализ финансового потенциала ювелирной отрасли Узбекистана и США	813
181.	Aliev M.K. Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirish	818
182.	Aliev M.K. Ijtimoiy ta‘minot tizimini rivojlantirish istiqbollari	820
183.	Farmanov J.Z. Asalarichilikning qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni hamda tarmoq tarixi	821
184.	Ортиков Э.Я. Дивидендлар аудитида таҳлилий амаллардан фойдаланиш	826
185.	Тайлакова Д.Б. Этапы формирования сферы услуг в развитии зеленой экономики	832
186.	Salohiddinov J., Davronov A. O‘zbekistonda davlat byudjeti va uni samarali boshqarishdagi imkoniyatlar va muammolarga oqilona yechimlar	838
187.	Jamilova N.X. Kichik biznesda moliyaviy boshqaruvni soddalashtirishda yangi texnologiyalarning samarasi	842
188.	Nortojoyeva N.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatishning takomillashuvi	851
189.	Tirkashev M.Y. Korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda va salohiyatini yaxshilashda qimmatli qog‘ozlarning ahamiyati	855
190.	Xamroyeva R. Byudjet defitsiti va uni kamaytirish strategiyalari	858
191.	Rajabov O.R. Moliya sohasida malakali kadrlar tayyorlash iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida	862

192.	Saitqulova M.A. Raqamlashtirish sharoitida malakali kadrlar tayyorlash va ularni o'qitish	866
193.	Мансуралиева К.Р. Совершенствование подготовки управленческих кадров для цифровой экономики	871
194.	Tulkinova L.A. Enhancing the audit of internal control systems in economic entities: a framework for effective assurance and risk management	876
195.	Musulmonova Sh.N. O'zbekistonda kambag'allik darajasini pasaytirishning o'ziga xos innovatsion yo'nalishlari	887

“MOLIYANI RAQAMLASHTIRISH: YANGI TENDENSIYALAR VA TATBIQ ETISH TAJRIBASI”

MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI

(2024-yil 22-23-noyabr)

Muharrir: **B. Musayev**

Musahhih: **I. Tog'ayev**

Kompyuterda sahifalovchi: **F. Akramova**

Bosishga ruxsat etildi: 27.11.2024 y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.

“Cambria” gar. Ofset bosma.

Hisob nashriyot t.: 56,28. Shartli b. t.: 56,30.

Adadi: 10 nusxa. Buyurtma №181

«Intelлект» nashriyotida tayyorlandi.

QarMII kichik bosmaxonasida chop etildi.

180100. Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225 – uy.

Telefon 91-466-80-32.